

## EDFIX VIDEOKURSLARINI XARID QILISH BO'YICHA

### OMMAVIY OFERTA

“EDFIX” mas’uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o‘rinlarda - Sotuvchi) nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi uning direktori \_\_\_\_\_ jismoniy shaxslarga (keyingi o‘rinlarda - Xaridor) axborot texnologiyalari bo‘yicha videokurslarni taqdim etish bo‘yicha quyidagi Shartnomani (keyingi o‘rinlarda - Shartnoma) taklif (oferta) qiladi.

### ASOSIY TUSHUNCHALAR

**Aksept** – Xaridor tomonidan muddatli to‘lov bo‘yicha to‘lov jadvalida belgilangan dastlabki to‘lovni amalga oshirganligi oferta shartnomasining shartlariga rozi bo‘lib, qabul qilgani va taraflar o‘rtasida shartnoma tuzilganini bildiradi.

**To‘lov jadvali** – mazkur oferta shartnomasi asosida Xaridorning shaxsiy kabinetida aks ettirilgan oylik to‘lovlarni bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish bo‘yicha muddat va to‘lov miqdorlari belgilangan rejali grafik.

**Oylik to‘lov** - muddatli to‘lov usuluni tanlagan va to‘lov jadvaliga muvofiq muayyan muddat ichida Xaridor tomonidan to‘lanishi shart bo‘lgan oylik to‘lov miqdori.

**Qarz** - Xaridor tomonidan Sotuvchiga to‘lanishi shart bo‘lgan barcha qoldiq pul miqdori.

**Ro‘yxatdan o‘tgan telefon raqami** – platformada ro‘yxatdan o‘tish jarayonida Xaridor o‘zini identifikatsiyalash uchun ko‘rsatgan va Sotuvchi tomonidan tasdiqlangan mobil telefon raqami.

**Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanali** - Xaridor bilan har qanday aloqa qilish shakli, shu jumladan Shaxsiy kabinet, Mobil ilova, Xizmat, Tizim orqali va boshqa platformalarni o‘z ichiga olgan Xaridorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan aloqa vositalari.

**Karta** – Xaridor tomonidan identifikatsiya jarayonida ko‘rsatilgan, virtual karta bo‘lmagan, ma‘lumotlaridan identifikatsiyalash jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan va kelajakda unga va barcha boshqa Xaridor Kartalariga Xaridor tomonidan qabul qilingan ofertaga va shartnomaga muvofiq “Takroriy to‘lov” xizmati yoqilishi mumkin bo‘lgan Xaridorning barcha bank kartalari.

**Xaridor** - identifikatsiyadan o‘tish maqsadida Platformaga murojaat qilgan va Platformaning imkoniyatlari, funksiyalari va tashkiliy mexanizmlaridan foydalangan holda kerakli tarzda xizmatlarni muddatli to‘lovga sotib olish istagini bildirgan jismoniy shaxs. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 27 va 29-moddalariga asosan ushbu oferta shartnomasiga binoan kurslarning xaridini amalga oshirish uchun **14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar** o‘z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining **yozma roziligini** olishlari lozim hamda o‘zlari tuzgan bitimlar bo‘yicha mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo‘ladilar. **14 yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlar uchun esa bitimlarni ularning nomidan faqat ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari tuzishlari mumkin.**

**Kafil** - Xaridor tomonidan muddatli to‘lovlar bo‘yicha shartnoma majburiyatlari belgilangan muddatlarda bajarilmagan taqdirda, uning o‘rniga Sotuvchiga qarzdorlikni to‘lab berish majburiyatini olgan voyaga yetgan, muomala layoqatiga ega, va kafillikka rozi bo‘lgan shaxs.

**Shaxsiy kabinet** - bu veb-sayt yoki mobil ilova ichidagi cheklangan foydalanuvchi maydoni bo'lib, unda Xaridor masofaviy identifikatsiya jarayonidan o'tadi, to'lov qobiliyatini tekshiradi, shartnomalar bo'yicha takliflarni tuzadi va qabul qiladi, amalga oshirilgan shartnomalar haqida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladi va Platformada boshqa zarur amallarni bajaradi. Shaxsiy kabinet orqali amalga oshirilgan barcha amallar va yuborilgan hujjatlar, jumladan taklifnomalar, Xaridor tomonidan amalga oshirilgan va yuborilgan deb hisoblanadi. Shaxsiy kabinet xizmatlari Platforma tomonidan taqdim etiladigan xizmatlardir.

**Savdo taklifi** - bu Sotuvchi tomonidan Platformaning elektron aloqa vositalari orqali Xaridorga jo'natiladigan va Shartnomaning alohida shartlarni o'z ichiga olgan hujjat bo'lib, u Sotuvchining Xaridorga ushbu Shartnoma asosida bitim tuzish bo'yicha taklifini ifodalaydi.

**Xaridorning to'lov qobiliyatini baholash** - bu Platforma va Sotuvchi o'rtasidagi oldindan kelishilgan shartlar asosida Xaridorga muddatli to'lov evaziga sotish qarorini belgilaydigan omillar majmuasi.

**Sotuvchi** – Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Xadra MFY, Xadra mavzesi, 1-uy manzili bo'yicha joylashgan "EDFIX" MCHJ ("Milliy bank" Chilonzor tumani filiali hisob raqami № 20208000305728490001, MFO 00450, STIR 310983394, Davlat guvohnomasi raqami № 2326844).

**Platforma** - bu Platforma, Sotuvchi va Xaridor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ta'minlash uchun axborot tizimi orqali xizmatlarni sotishga mo'ljallangan tashkiliy, axborot va texnik yechimlardan iborat dasturiy-ta'minot majmuasi.

**Dasturiy ta'minot** - bu Xaridorga Platforma xizmatidan, Veb-saytdan, Shaxsiy kabinetdan yoki Mobil ilovadan onlayn foydalanish, elektron shaklda oferta, shartnomalar va qo'shimcha bitimlar tuzish, shuningdek boshqa hujjatlar va xabarlarni almashish imkonini beruvchi dasturiy vositalar to'plami.

**Push-xabar** - bu Platforma tomonidan Xaridorning mobil qurilmasi ekranida paydo bo'ladigan qisqa xabar shaklida Xaridorga yuboriladigan bildirishnoma.

**Hisob sanasi** - bu To'lov jadvalida ko'rsatilgan va keyingi oylik to'lovni amalga oshirish zarur bo'lgan sana. Hisob sanasi kuni yakunlanganda, ushbu shartnoma asosida to'lovning amalga oshirilishi, kechikishning kelib chiqishi, qarzdorlik qoldig'ining o'zgarishi va boshqa holatlar aniqlanadi.

**Hisob-kitob davri** - bu Shartnoma tuzilgan kundan boshlab birinchi Hisob sanasigacha bo'lgan vaqt oralig'i hamda bir Hisob sanasidan keyingi kundan boshlab keyingi Hisob sanasigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

**Zamonaviy kasblar** – edfix.uz taqdim etuvchi xizmatlar asosida o'rganiladigan darslarga oid kasblar.

**edfix.uz** – zamonaviy kasblarni onlayn o'rganishga mo'ljallangan o'quv materiallari va edfix.uz domen hududida joylashgan, o'zida ma'lumotlar, matnlar, grafik elementlar, dizayn, tasvir, foto va videomateriallar, intellektual faoliyatning boshqa natijalarini jamlagan materiallar to'plami joylashgan veb-sayt va "EDFIX" MCHJning mulki. Kelgusida "sayt" yoki "platforma" deb yuritiladi. Shartnomadagi "sayt" va "platforma" so'zlari bir xil ma'noni anglatadi.

**O'quv kursi** – video, audiovizual, matn fayllar tarzida bitta mavzu va nom bilan birlashtirilgan o'quv materiallarining to'plami. O'quv kurslar tavsifi saytda taqdim etiladi. O'quv kurslari tarkibiy o'zgartirib borilishi mumkin.

**Sayt** – <https://edfix.uz> manzilida joylashgan Platformaning internet-resursi.

**Sotuvchining sayti** - zarur dasturiy ta'minot o'rnatilgan yoki ko'rsatilgan Dasturiy ta'minotga kirishingiz mumkin bo'lgan Sotuvchining Savdo nuqtasi bo'lgan internet-resursi, ya'ni <https://edfix.uz>.

**SHM ga ishlov berishga rozilik** - Xaridorning shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga va Xaridor tomonidan dastlabki identifikatsiya qilish va tekshirish jarayonlaridan o'tish paytida bildirilgan boshqa majburiyatlarni yoki Xaridorning Shaxsiy kabinetida, shuningdek mobil ilova yoki Sotuvchining Saytida ko'rib chiqish uchun mavjud bo'lgan har qanday boshqa Shartnomani qabul qilishga roziligi.

**Tovar/Xizmatlar** - Platformada belgilangan va Sotuvchi tomonidan taqdim etilgan Xaridor tomonidan Sotuvchidan sotib olingan ishlar yoki xizmatlar.

**Savdo nuqtasi** - Sotuvchi Xizmatni sotishi yoki o'z xizmatlarini ko'rsatishi mumkin bo'lgan, Tizim yoki Uskuna joylashgan Sotuvchining ofisi, boshqa alohida bo'linmasi yoki Sotuvchi Sayti.

**Elektron aloqa kanali** - Xaridor bilan aloqaning har qanday elektron shakli, shu jumladan har qanday Masofaviy xizmat ko'rsatish kanali orqali, Xaridorning ro'yxatdan o'tgan telefon raqamiga SMS-xabar yoki push-xabarnoma yoki Xaridorning ro'yxatdan o'tgan elektron pochta qutisiga elektron pochta orqali o'rnatilgan aloqa.

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur oferta shartlariga muvofiq Sotuvchi Xaridor tomonidan tanlangan onlayn o'quv kurslari bo'yicha o'qitish xizmatlarini ko'rsatish, Xaridor esa ushbu xizmatlarni qabul qilib, to'lash majburiyatini oladi (bundan keyin – Xizmatlar). Ushbu xizmatlar Xaridorga shaxsiy kabineti orqali elektron o'quv materiallariga kirish imkoniyatini beruvchi onlayn-kurs, malakali va texnik yordam, uy vazifalarini tekshirish, kursni muvaffaqiyatli tugatgani to'g'risida sertifikat berishni o'z ichiga oladi.

1.2. Kurslarning tavsifi, uning davomiyligi, formati, shuningdek, ta'lim natijalari edfix.uz platformasida batafsil bayon etilgan.

## 2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu shartnoma Xaridorlarni ro'yxatdan o'tkazish, identifikatsiya qilish va tasdiqlash tartibini, **edfix.uz** platformasida elektron Shartnomalar tuzish tartibini belgilaydi, shuningdek, Xaridor va Platforma o'rtasidagi shu orqali yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

2.2. O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish kabi sohalardagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi 185-son qarori bilan tasdiqlangan "Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari", "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

## 3. EDFIX.UZ PLATFORMASIDA RO'YXATDAN O'TISH TARTIBI

3.1. edfix.uz platformasida harakatlarni amalga oshirish va Xizmat(lar)ni muddatli to'lovga sotib olish uchun Xaridor dastlab **edfix.uz** veb-sayti yoki uning mobil ilovasi orqali ro'yxatdan o'tishi kerak.

3.2. Ro'yxatdan o'tish uchun Xaridor ism familiyasi va mobil telefon raqamini kiritishi, maxsus parol (kamida 8 ta belgidan, kamida bitta katta harfdan tashkil topgan) o'ylab topishi va telefon raqamiga sms tarzida kelgan noyob kodni kiritishi kerak

3.3. Xaridor muddatli to'lo'vni platformadagi "To'lo'vlarim" sahifasi orqali rasmiylashtiradi. Muddatli to'lo'vni rasmiylashtirish vaqtida bank plastik kartasi ulangan telefon raqamga tasdiqlovchi noyob kod keladi. Kodni kiritish orqali va uning tasdiqlovini olgach Xaridor mazkur oferta shartnomasining shartlari, **shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va saqlash bo'yicha platforma siyosati** bilan tanishganligi va ularga rozilik berganini, shuningdek **edfix.uz internet platformasidan foydalanish bilan bog'liq va muddatli yoki naqd to'lov asosida** videokurslarni sotib olish bo'yicha shartnoma shartlariga rozi ekanligini tasdiqlaydi.

3.4. Platformada ro'yxatdan o'tishni davom ettirish uchun Xaridor uning to'lov qobiliyatini baholash

uchun plastik bank kartasining raqami va amal qilish muddatini kiritishi kerak. Shundan keyin, Xaridor mazkur shartnomaning 3.3.-bandiga muvofiq kiritgan telefon raqamiga noyob kodli SMS-xabar yuboriladi, uni kiritish orqali Xaridor edfix.uz platformasida sotib olgan tovar va xizmatlar uchun barcha to'lovlar, shu jumladan muddatli to'lovlar ham mazkur bank kartalari orqali amalga oshirilishiga rozilik bildiradi.

3.5. Ro'yxatdan o'tishning keyingi bosqichida Xaridor o'zining va kafilning quyida belgilangan ma'lumotlarini edfix.uz platformasiga avtomatlashtirilgan tarzda kiritishi shart. Buning uchun Xaridor va kafilning pasporti yoki ID-kartasi asosida ma'lumotlarni kiritish talab **qilinishi mumkin:**

- a) ismi va familiyasini to'liq shaklda;
- b) pasport seriyasi, raqami va uning amal qilish muddati;
- c) JSHSHIR (jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasion raqami)
- d) Pasportning (ID-karta) to'liq ochilgan fotosurati;

3.6. Ro'yxatga olishning keyingi bosqichida maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda masofadan Xaridorning hujjatdagi fotosurat bilan "o'xshashligi" tekshiriladi va Xaridorning "jonliligi" baholanadi.

3.7. Ushbu Umumiy qoidalarning 3.2, 3.3, 3.4 va 3.5.-bandlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'liq kiritilgandan so'ng, **edfix.uz** platformasi to'lov qobiliyatini baholash tartib-taomilini amalga oshiradi va Xaridorga kiritilgan ma'lumotlar tasdiqlashdan muvaffaqiyatli o'tganligi to'g'risida yoki tasdiqlash rad etilganligi to'g'risida elektron xabar yuboradi.

3.8. Tasdiqlash rad etilganligi to'g'risida elektron xabar olingan taqdirda **edfix.uz** platformasi tomonidan qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etishni hisobga olgan holda, Xaridor 3.2, 3.3, 3.4 va 3.5.-bandlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarni kiritishni takrorlashi mumkin.

3.9. Tasdiqlashdan muvaffaqiyatli o'tganlik to'g'risida elektron xabar kelgach Xaridor **edfix.uz** platformasidagi shaxsiy kabinetiga kirish huquqiga ega bo'ladi. Shu paytdan boshlab, Xaridorni **edfix.uz** platformasida ro'yxatdan o'tkazish, identifikatsiya qilish va tekshirish jarayoni tugallangan hisoblanadi va quyidagi shartlar asosida muddatli to'lov evaziga tovarni sotib olishga haqli bo'ladi.

## 4. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 4.1. Sotuvchining huquqlari:

4.1.1. Sotuvchi, taqdim etilgan hujjatlarning elektron (skanerlangan) nusxalarining haqiqiyliги yoki ishonchligiga shubha tug'lganda Xaridorni ro'yxatdan o'tkazishni yoki xizmat ko'rsatishni rad etish huquqiga ega. Bunday holatda, Xaridor *edfix.uz* platformasiga hujjatlarning tegishli elektron (skanerlangan) nusxalarini qayta joylaganidan keyin Sotuvchi tomonidan hujjatlar ko'rib chiqiladi.

4.1.2. Mazkur shartnomada belgilangan holatlarda shartnomani bir tomonlamani bekor qilish.

4.1.3. Xizmatlar sifatini oshirish maqsadida Xaridor bilan bo'lgan telefon suhbatlarni yozib olish.

4.1.4. Mazkur shartnomada belgilangan shartlar topilmagan taqdirda Xaridorga kursni muvaffaqiyatli tugatganligi haqida sertifikatini berishdan bosh tortish.

4.1.5. Xaridor tomonidan muddatli to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida undan kafil talab qilish.

4.1.6. Sotuvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

### 4.2. Sotuvchining majburiyatlari:

4.2.1. Xaridor belgilangan talablarni bajargan taqdirda uni platformada ro'yxatdan o'tkazish.

4.2.2. Xaridor tomonidan **dastlabki to'lov** amalga oshirilgan kundan boshlab tovar va xizmatlarga kirish imkoniyatini **24 soat** ichida taqdim etish. Texnik uzilishlar yoki kirishni o'z vaqtida ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi boshqa kutilmagan holatlar yuz bergan taqdirda, Sotuvchi zudlik bilan Xaridorni yuzaga kelgan vaziyat haqida xabardor qiladi va uni imkon qadar tezroq bartaraf etish uchun barcha zarur choralarni ko'radi.

4.2.3. Xaridor tomonidan bajarilgan uy vazifalarini tekshirish va ularning natijalarini Xaridorga taqdim etish.

4.2.4. O'zbekiston vaqti bilan soat **9:00 dan 18:00** gacha bo'lgan vaqtda **ish kunlarida** Xaridorlarga yordam ko'rsatish, savollarga javob berish.

4.2.5. Kursga, uning materiallariga kirish va o'quv platformasining ishlashi bo'yicha texnik yordam ko'rsatish.

4.2.6. To'lovi to'liq amalga oshirilgan videodarslarga va kursning boshqa video materiallaridan foydalanishni **dastlabki to'lov amalga oshirilgan sanadan boshlab 1 (bir) yil** davomida ta'minlash.

4.2.7. Quyidagi mezonlar bajarilgan taqdirda, kursni muvaffaqiyatli tugatgani haqida Xaridorga sertifikat berish:

a) *Kurs dasturini to'liq o'tish*: Xaridor kurs dasturini, uning barcha modullari, bo'limlari va darslarini to'liq o'tishi kerak. Bu kurs doirasida taqdim etilgan barcha nazariy materiallarni o'rganish, video leksiyalarni tomosha qilish, qo'shimcha resurslarni o'qish va boshqa o'quv materiallarini o'z ichiga oladi.

b) *Barcha uy vazifalari va topshiriqlarni bajarish*: Xaridor har bir modul yoki kurs bo'yicha barcha uy vazifalarini, jumladan loyiha ishlari, testlar yoki imtihonlarni belgilangan talablarga muvofiq muvaffaqiyatli bajarishi kerak.

c) *Kurs narxini to'liq to'lash*: Sertifikat olish uchun Xaridor kurs narxini to'liq to'lagan bo'lishi shart. Xaridorning Sotuvchi oldida hech qanday qarzdorligi bo'lmasligi majburiy shart hisoblanadi.

Agar Xaridor yuqorida sanab o'tilgan shartlardan biriga javob bermasa, Sotuvchi kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar sertifikat berishdan bosh tortish huquqiga ega.

4.2.8. Xaridorning shaxsga doir ma'lumotlaridan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ruxsat etilgan tartibda foydalanish, ishlov berish hamda uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik, ularning maxfiyligini ta'minlash. Biroq, O'zbekiston Respublikasi qonunlari doirasida, ma'lum bir holatlarda yoki muddatli to'lovga oid majburiyatlarni bajarish maqsadida bu ma'lumotlarni tegishli tashkilotlarga yoki Sotuvchining huquqlarini himoya qilish maqsadida uchinchi shaxslarga taqdim etishga ruxsat etiladi. Shuningdek, agar ma'lumotlar umumiy foydalanish uchun ochiq bo'lsa yoki Xaridor rozilik bildirgan holatlar **yoki hakkerlik hujumlari kabi Sotuvchiga bog'liq bo'lmagan holatlar natijasida shaxsiy ma'lumotlarning sizib chiqishi istisno holati hisoblanadi.**

### 4.3. Xaridorning majburiyatlari:

4.3.1. Ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq, o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish. Agar to'lovlar **5 (besh) bank ish** kunidan ortiq kechiktirilsa, Sotuvchi to'lov to'liq amalga oshirilguniga qadar Xizmatlarni taqdim etishni to'xtatish huquqiga ega.

4.3.2. Kompyuter, smartfon va boshqa elektron qurilmalarda to'lov vositalari, ma'lumotlar bazasining ishonchiligi, va xavfsizligini ta'minlash. **Shuningdek, Xaridordan ikkita qurulma orqali bir paytda platformaga kirmaslik talab etiladi. Agar Xaridor ikkita qurilmadan bir paytning o'zida kirsam yoki boshqa qurilmada platformaga kirganlik holati mavjud bo'lsa, teknik jihatdan platformaga kirolmasligi mumkin.**

4.3.3. Sotuvchining taklifini va to'lov shartlarini qabul qilishdan oldin, shartnoma shartlarini (narx, tanlangan o'quv kursi turi, to'lov usuli, javobgarlik va hokazo) diqqat bilan tanishib chiqish.

4.3.4. Xizmatlarni faqat **shaxsiy maqsadlar uchun** sotib olish va tadbirkorlik yoki daromad topish maqsadida foydalanmaslik. Xususan, darslik majmualarini yoki ularning qismlarini Sotuvchining yozma ruxsatisiz boshqa shaxslar yoki tashkilotlarga nashr etish, tarqatish, ommalashtirish yoki boshqa tarzda foydalanishdan saqlanish. Shuningdek, sotib olingan kurslarni uchinchi shaxslarga sotish taqiqlanadi.

4.3.5. Shaxsiy hisob raqamining identifikatsiya ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik va ularni himoyalash.

4.3.6. *edfix.uz* sayti va shaxsiy kabinetda e'lon qilingan xabarlar va bildirishnomalarni muntazam kuzatib borish.

4.3.7. Sotuvchi va uning xodimlari bilan muloqot jarayonida umum-e'tirof etilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

4.3.8. Sotuvchi bilan aloqaga kirishganda, Xaridor *edfix.uz* platformasiga quyidagilarga rozilik beradi:

a) Muddatli to'lov va uning holati, qarzdorlikni undirish choralari haqida SMS xabarlar yuborish uchun Xaridor tomonidan ko'rsatilgan qo'shimcha telefon raqamlariga murojaat qilish;

b) Xaridorga muddatli to'lov asosida xizmatlarni taqdim etishni tasdiqlash maqsadida uning to'lov qobiliyati yoki daromadlari haqida ma'lumot olish.

4.3.9. O'zbekiston Respublikasining "Kredit ma'lumotlarini almashinuvi to'g'risida"gi va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunlarga muvofiq, shartnoma tuzish va amalga oshirish uchun shaxsiy ma'lumotlarni ishlov berishga to'liq rozilik berish.

**4.3.10. Ro'yxatga olish bosqichida kiritgan shaxsiy ma'lumotlaridagi o'zgarishlar haqida platformani darhol xabardor qilish, xususan:**

**a) Xizmat ko'rsatuvchi bank yoki bank kartasi o'zgarganda;**

**b) Asosiy mobil telefon raqami o'zgarganda;**

4.3.11. Xaridor edfix.uz saytidan olgan xizmatlar va ularning natijalarini, shu jumladan onlayn kurslar va darsliklarni, shaxsiy akkauntidan foydalanish huquqini tijorat maqsadida ishlatmaslik hamda uchinchi shaxslarga tarqatmaslik yoki sotmaslik.

4.3.12. edfix.uz platformasidan uchinchi shaxslarning huquqlarini buzadigan yoki noqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik.

4.3.13. Xaridor olingan bilimlardan qonunga xilof, noto'g'ri yoki etikasiz harakatlarni, shu jumladan xakerlik, ma'lumotlarga noqonuniy kirish, zararli dasturiy ta'minot yaratish va tarqatish, intellektual mulk huquqlarini buzish kabi amallarni sodir etish uchun foydalanmaslik. Bundan tashqari, xaridor bu kabi harakatlarni boshqa mijozlar bilan yoki Sotuvchining xodimlari bilan birgalikda sodir qilsa ham, shaxsan javobgar bo'ladi.

4.3.14. Platformaga ro'yxatdan o'tkazishda kiritilgan shaxsiy va plastik raqamining ma'lumotlari to'g'riligini kafolatlash.

**4.3.15. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan Xaridor ushbu oferta shartnomasi asosida kurslarni xarid qilish uchun o'z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yozma roziligini olganligini kafolatlaydi.**

**4.3.16. Kafilga tegishli shaxsiy va bank kartasi ma'lumotlarini to'g'ri kiritish, kafilning unga kafil bo'lishiga rozi ekanligini tasdiqlaydi.**

## 5. TO'LOV TARTIBI VA TOVAR NARXI

5.1. Xaridor **bir martalik yoki bo'lib to'lash (muddatli to'lov)** usulini tanlashi mumkin. To'lov miqdorining muddati Xaridorning shaxsiy kabinetida ko'rinadi va bu mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. **Xaridor tomonidan boshlang'ich to'lov amalga oshirilishi aksept sifatida tan olinadi va shu bilan shartnoma shartlari ikki tomonlama kuchga kiradi.**

5.2. Tovar va xizmatlarning narxi *edfix.uz* platformasida belginadi. Tovar (xizmat)ning narxi mazkur shartnomaning amal qilish muddati davomida o'zgarishsiz qoladi.

5.3. Muddatli to'lov asosida xizmatlar sotib olinganda, Xaridor tomonidan tanlangan to'lov jadvaliga muvofiq, har oyda teng qismlarda to'lovlar amalga oshiriladi. Sotuvchi, Xaridorga belgilangan to'lov muddatidan **1-3 kun oldin** to'lovni amalga oshirishni eslatish huquqiga ega. Bu eslatma Xaridorning shaxsiy

kabinetida yoki boshqa usullar orqali amalga oshiriladi, lekin Sotuvchi bunday eslatma xabarnomani yuborishga majbur emas.

5.4. Sotuvchining platformasidagi tovar va xizmatlar narxi O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda, barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobga olingan holda ko'rsatilgan. Mazkur shartnoma asosida taqdim etilayotgan xizmatlar uchun to'lov Xaridor tomonidan turli to'lov tizimlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

5.5. Xaridor, bank kartasini edfix.uz axborot tizimiga ulaganda, o'zining bank kartasi va O'zbekiston Respublikasi yoki xorijiy mamlakatlarda ochilgan har qanday banklardagi to'lov kartalaridan, xizmat uchun to'lovlar to'liq amalga oshirilgunga qadar to'lov jadvaliga muvofiq pul mablag'larini **to'g'ridan-to'g'ri yechib olishga (takroriy to'lovlarga) rozilik bildiradi.**

5.6. Agar Xaridorning bank kartasida yetarli mablag' bo'lmasa yoki to'lov **5 (besh) bank ish kunidan kechiksa, Sotuvchi qarzdorlikni to'g'ridan to'g'ri Kafildan undirishga haqli bo'ladi.** Agar, Kafil unga murojaat qilingan kundan e'tiboran to'lovni 5 (besh) bank ish kuni ichida amalga oshirmasa, Sotuvchi qarzdorlikni **sud orqali undiradi.** Bunda barcha sud xarajatlari Xaridor tomonidan qoplanadi.

5.7. Xaridor to'lovni belgilangan muddatlarda to'lashi shart. Oylik muddatli to'lov **5 (besh) bank ish kunidan ortiq kechikishi Sotuvchi tomonidan xizmatlarni taqdim etishni qarzdorlik bartaraf etilguniga qadar to'xtatilishiga olib kelishi mumkin.** Xizmatlarning to'liq hajmiga kirish imkoniyati Sotuvchi Xaridorning qarzdorlikni to'liq to'lagani haqida tasdiqnoma olganidan keyin darhol tiklanadi.

5.8. To'lovlarning **15 kalendar kunidan ortiq kechikishi yoki to'lov muddatlari (ikki martadan ortiq) buzilgan taqdirda,** Sotuvchi shartnomani bekor qilib, qolgan summani to'liq to'lashni sud orqali talab qilishga haqli. Bunda, shu paytgacha amalga oshirilgan to'lovlar qaytarib berilmaydi.

## 6. XIZMATLARDAN VOZ KECHISH

6.2. Agar Xaridorda kurs bo'yicha taqdim etilgan xizmatlarga nisbatan e'tirozi bo'lsa, u kirish huquqi taqdim etilgandan keyin bu haqida **7 (yetti) kalendar kuni** ichida Sotuvchiga **yozma ravishda xabar** berishi yoki **78 888-68-88 Call centre** raqami orqali murojaat qilishi kerak. Bunda boshlang'ich **to'lov qaytariladi.**

6.3. Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab, **7 kalendar kuni** ichida yoki Xaridor kursning **30 (o'ttiz) foizi yoki undan kamrog'ini o'zlashtirgan** bo'lsa, Xaridorning istagiga ko'ra, u *edfix.uz* veb-saytida mavjud bo'lgan boshqa kursga almashtirilishi mumkin. Bunda yangi kursning narxi oldingi kurs narxiga teng yoki undan past bo'lishi kerak. Agar almashtirmoqchi bo'lgan kurs narxi qimmatroq bo'lsa, Xaridor ikki kurs o'rtasidagi farqni to'laydi. Agar tanlagan kurs narxi Xaridor almashtirmoqchi bo'lgan kurs narxidan past bo'lsa, Sotuvchi kurslar narxi o'rtasidagi farqni Xaridorga qaytarmaydi.

6.4. Agar Xaridor kursning **25 (yigirma besh) foizidan ko'prog'ini o'zlashtirgan** bo'lsa, xizmatlar Sotuvchi tomonidan to'liq ko'rsatilgan deb hisoblanadi va Xaridordan qarzdorlik to'liq shaklda undiriladi.

6.5. Pul mablag'larini qaytarish jarayonini boshlash uchun, Xaridor shartnomani bekor qilish sabablari va kurs uchun amalga oshirgan to'lov hujjatlari ko'rsatilgan yozma shaklda *yoki 78 888-68-88 Call centre* raqami orqali murojaat qilishi shart. Sotuvchi arizani olgandan keyin **14 ish kuni ichida** uni ko'rib chiqadi va pul mablag'larini qaytarish bo'yicha qaror qabul qilib, bu haqida Xaridorga xabar beradi. Ijobiy qaror qabul qilingan kundan boshlab, pul mablag'lari Xaridor taqdim etgan bank plastik karta raqamiga **30 kalendar kuni**



ichida qaytariladi. Bunda, pulni qaytarish bilan bog'liq bank xarajatlari Xaridorning hisobidan (dastlabki to'lovdan) qoplanishi mumkin.

## 7. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Agar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yengib bo'lmas kuch oqibatida (fors-major), shartnoma tuzilgandan so'ng yuzaga kelgan favqulodda hodisalar natijasida (urush, suv toshqini, yer qimirlashi, epidemiya, hukumat qarorlari, **hakkerlik hujumlari, serverlarning zarar ko'rishi** va h.o.) vujudga kelgan bo'lsa, Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlari qisman yoki to'liq bajarilmagani uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

7.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda "Taraflar" ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

7.3. Yuzaga kelgan fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida har bir Taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, 3 (uch) ish kuni ichida bu haqda ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

7.4. Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo'ladilar. Yuzaga kelgan fors-major holatlari bartaraf bo'lganidan keyin mazkur shartnoma shartlari to'liq o'z kuchiga ega bo'ladi.

## 8. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. edfix.uz saytida nashr etilgan barcha matn va grafik materiallar mualliflik huquqlari bilan himoyalangan bo'lib, ularni noqonuniy ishlatish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid ravishda javobgarlikka sabab bo'ladi.

8.3. edfix.uz platformasi va uning veb-saytining funkcionalligini ta'minlovchi dasturiy va apparat komplekslaridagi nosozliklar, xatolar yoki uzilishlar, shuningdek, Xaridorning Platformaga aloqasi bo'lmagan sabablar tufayli dasturiy yoki apparat vositalaridan vaqtincha foydalana olmasligi yoki shunga bog'liq bo'lgan zararlari uchun Platforma yoki Sotuvchi javobgar emas.

8.4. Quyidagi holatlarda kelib chiqqan zararlar uchun Sotuvchi javobgar emas:

a) Xaridorning *edfix.uz* platformasiga kirishda ishlatadigan qurilmalarida yoki dasturiy ta'minotida mavjud bo'lgan viruslar yoki boshqa zararli dasturlar;

b) edfix.uz platformasidan foydalanishda noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish;

c) Xaridor tomonidan Shartnoma shartlarning buzilishi;

d) Xaridor tomonidan to'lov tartib-qoidalarini buzishi.

8.5. Sotuvchi quyidagi holatlarda Xaridorning shaxsiy kabinetiga kirishni cheklash huquqini o'zida saqlab qoladi:

a) Xaridor tomonidan boshqa xaridorlar yoki uchinchi shaxslarning huquqlarini yoki qonuniy manfaatlarini buzilganligi haqida da'volar kelib tushganda;

b) Xaridor tomonidan Shartnoma shartlari buzilganda.

8.6. Xaridor muddatli to'lovni belgilangan to'lov jadvaliga muvofiq o'z vaqtida amalga oshirmagan yoki kechiktirgan taqdirda, Sotuvchi quyidagi choralarni ko'rish huquqiga ega:

a) Qarzdorlikni undirish yoki uni undirish huquqini uchinchi shaxslarga topshirish yoki sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilish;

b) Qarzdorlikni undirishni kafildan talab qilish;

c) videokurslardan foydalanishni cheklash.

d) Xizmatlarning to'liq summasini muddatidan oldin to'lashni talab qilish;

e) Qarzdorlik summasining to'liq miqdorini muddatidan oldin undirish maqsadida sudga murojaat qilish. Bunda, undirish bilan bog'liq xarajatlar Xaridordan undiriladi.

8.7. Sotuvchi 8.6-bandda keltirilgan choralardan birini yoki bir nechtasini bir vaqtning o'zida qo'llashi mumkin, bu holatda qarzdorlikni undirish bilan bog'liq barcha xarajatlar va zararlar Xaridor tomonidan to'liq qoplanadi.

8.8. Sotuvchi Xaridor tomonidan quyidagi holatlar yuz berganda ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi va to'lovni qaytarmaydi:

a) Kurs materiallarini ko'chirish, tarqatish, qayta sotish yoki kurs kontentiga noqonuniy kirishga urinishlar;

b) Jamoatchilik oldida Sotuvchining brendi yoki obro'sini to'kish, shubha ostiga qo'yish, yolg'on ma'lumotlar tarqatish va h.k. orqali diskreditatsiya qilish;

c) To'lov muddatlarini ikki martadan ortiq buzish.

8.10. Sotuvchi alohida toifadagi ehtiyojmand shaxslar tomonidan yuqoridagi shartnoma majburiyatlari buzilgan taqdirda vandalizm yoki Sotuvchiga to'g'ridan-to'g'ri zarar yetkazilmagan bo'lsa, shartnomani bekor qilmasligi mumkin.

8.11. Xaridor edfix.uz saytidan olgan xizmatlar va ularning natijalarini, shu jumladan onlayn kurslar va darsliklarni, shaxsiy akkauntidan foydalanish huquqlarini **tijorat maqsadida** ishlatsa, uchinchi shaxslarga tarqatsa, yoki sotsa Sotuvchiga yetkazilgan haqiqiy moddiy zarar qoplaydi.

8.12. Xaridor Sotuvchi tomonidan taqdim etilgan o'quv kurslari orqali olingan barcha bilimlar **faqat qonuniy va etik maqsadlar uchun mo'ljallanganini tan oladi**. Xaridor olingan bilimlardan qonunga xilof, noto'g'ri yoki etikasiz harakatlarni, shu jumladan xakerlik, ma'lumotlarga noqonuniy kirish, zararli dasturiy ta'minot yaratish va tarqatish, intellektual mulk huquqlarini buzish kabi amallarni sodir etganlik uchun javobgar bo'ladi. Bunda, agar Xaridor Sotuvchidan olingan bilimlardan qonunga xilof tarzda foydalanib, noto'g'ri yoki etika qoidalariga zid xatti-harakatlarni sodir etsa, Xaridor bunday harakatlar uchun to'liq **shaxsan javobgar bo'ladi** hamda Sotuvchi va uchinchi shaxslarga ushbu harakatlari oqibatida yetkazilgan zararni qoplab berishi shart.

## 9. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

9.1. Mazkur shartnoma bo'yicha vujudga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar taraflar tomonidan o'zaro muzokaralar o'tkazish orqali hal etiladi.

9.2. Agar nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etish imkonsiz bo'lsa yoki taraflar biror shartnomaga erisha olmasalar taraflar nizoni hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Sotuvchi joylashgan hududdagi vakolatli sudida hal qilinadi.

## 10. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH TARTIBI

10.1. Platformaga pochta manzili yoki Internet orqali kontaktdan foydalanish bilan tegishli yozma so'rov yuborish orqali, shuningdek, Xaridorning shaxsiy kabinetidan so'rov yuborish orqali, Xaridor platformadan o'zining shaxsiy ma'lumotlari, ularga ishlov berish va foydalanish to'g'risida to'liq ma'lumot so'rashga, shuningdek, noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan shaxsiy ma'lumotlarni chiqarib tashlash yoki tuzatish/qo'shishni talab qilishga haqli.

10.2. Xaridorning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishga roziligi muddatsizdir va Xaridor tomonidan Platformaga pochta manzili bo'yicha yozma ariza yuborish yoki Internet orqali murojaat qilish, shuningdek, **edfix.uz** veb-saytida Xaridorning shaxsiy kabinetidan so'rov yuborish orqali bekor qilinishi mumkin.

## 11. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Ushbu oferta shartnomasi e'lon qilingan sanadan boshlab, ikkinchi taraf uchun aksept qilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va **1 (bir) yil davomida amal qiladi**. Biroq, shartnoma majburiyatlari Taraflardan biri bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda ushbu Shartnoma Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar o'z kuchini saqlab qoladi.

11.2. Ushbu shartnomaga qilinadigan barcha ilovalar, qo'shimchalar va o'zgarishlar ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Oferta e'lon qilingan sana: 2024 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_

"EDFIX" MCHJ

Manzil: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Xadra MFY, Xadra mavzesi, 1-uy

Email: edfixuz@gmail.com

Bank rekvizitlari: "Milliy Bank" Chilonzor tumani filiali

H/R: 20208000305728490001

MFO: 00450

**STIR: 310983394**

**OKED: 85590**